

O'ZBEKISTON RESPULIKASIDAGI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRLIKNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

Ilmiy rahbar, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Menejment fakulteti Innovatsion  
menejment kafedrasи Phd dotsent

Qosimov Ulug'bek Otabekovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Menejment fakulteti, MNP-61/22 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1463133>

*Annotatsiya.* Mazkur tezisda O'zbekiston Respulikasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirishda kelib chiqadigan turli muammo va kamchiliklar, ularni hal etishni optimal usullari, 2024-yilda YAIm, import va eksport tahlil qilingan. Respublikadagi xususiy tadbirkorlar sonini ko'paytirish va mavjud bizneslarni turli xil innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish natijasida iqtisodiyotda yuqori o'sishga erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, import, eksport, O'zbekiston iqtisodiyoti, bozor, servis rivojlantirish.

ОРГАНИЗАЦИЯ И РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО  
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

*Аннотация.* В данной дипломной работе анализируются различные проблемы и недостатки, возникающие в организации и развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан, оптимальные пути их решения, ВВП, импорт и экспорт в 2024 году. В результате увеличения количества частных предпринимателей в республике и развития действующего бизнеса за счет различных инновационных технологий можно добиться высоких темпов роста экономики.

**Ключевые слова:** Частное предпринимательство, малый бизнес, импорт, экспорт, экономика Узбекистана, рынок, развитие услуг.

ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE  
ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Abstract.* This thesis analyzes various problems and shortcomings in the organization and development of small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan, optimal methods for solving them, GDP, import and export in 2024. Increasing the number of private entrepreneurs in the republic and developing existing businesses through various innovative technologies can achieve high growth in the economy.

**Keywords:** *Private entrepreneurship, small business, import, export, economy of Uzbekistan, market, service development.*

---

Kirish. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishdagi eng muhim omillardan biri bu tadbirkorlar hisoblanadi. Mamlakatdagi mazkur iqtisodiy holatni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich islohotlar olib borilmoqda. Kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, kichik biznesga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada bugungi kunga kelib, kichik biznes sub'ektlari Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalarida, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, iste'mol tovarlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari ko'rsatish va turizm kabi sohalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinnari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhitni hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Natijada so'nggi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturiga muvofiq, joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes muhitni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqqyosda jaib qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/acts/-1856013>

O‘zbekistonda 2023–2026-yillarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun 1,7 mlrd dollar mablag‘ ajratiladi

Joriy yilning 1-oktyabridan 2026-yil yakunigacha mamlakatda kichik biznes rivoji uchun davlat hisobidan 6 trillion so‘m va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard dollar miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltiriladi. Bu 2023-yil 16-sentyabr kuni qabul qilingan “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident qarorida belgilangan.<sup>2</sup>

Qarorga asosan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, “Biznesni rivojlantirish banki” 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshiradi. Dasturni 2023–2026-yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag‘lari hisobidan 6 trillion so‘m va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltiriladi.

Quyidagilar onlayn ariza yuborish orqali dasturda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi:

- kamida bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta’lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta’minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari;
- oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o‘z biznes loyihamini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.<sup>3</sup>

024-yil 1-martdan boshlab kompaniya biznesni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rishni boshlaydi. O‘rta tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihamariga:

- Tashabbuskorlarning ustav kapitaliga ko‘chmas mulk, asbob-uskunalar va boshqa ulush shaklidagi loyihamar qiymatining 15% miqdoridagi hissasi (lekin ustav fondining 20% yoki 3 mlrd so‘midan ko‘p bo‘lmagan);
- ipotekaga asoslangan xizmatlarni tashabbuskorga ko‘chmas mulk va asbob-uskunalar qiymatining 10 foizida (7 mlrd so‘mgacha) mulk sotib olish uchun 7 yilgacha muddatga qarzdorlik qoldig‘iga Markaziy Bankning asosiy stavkasidan 4% yuqori yillik foiz stavkada yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan hisoblanadi.

Ushbu yordam ikki yildan ortiq faoliyat yuritayotgan va bir yil davomida kamida 50 kishi doimiy shtatida bo‘lgan kompaniyalar o‘rtasida ochiq tanlov asosida taqdim etiladi.

<sup>2</sup> <https://daryo.uz/2023/11/13/ozbekistonda-20232026-yillarda-kichik-beznesni-qollabquvvatlash-uchun-17-mlrd-dollar-mablag-ajratiladi>

<sup>3</sup> <https://daryo.uz/2023/11/13/ozbekistonda-20232026-yillarda-kichik-beznesni-qollabquvvatlash-uchun-17-mlrd-dollar-mablag-ajratiladi>

Buning uchun Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan 1,2 trln so‘m miqdorida 10 yilga foizsiz budget krediti, shu jumladan besh yillik imtiyozli davr ajratiladi.

Shuningdek, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi kichik va o‘rtalagi biznesga kreditlar ajratish uchun banklar, mikromoliya va lizing tashkilotlariga so‘m va chet el valyutasidagi mablag‘larni joylashtiradi. 5 mlrd so‘mgacha bo‘lgan kreditlarga kafillik taqdim etiladi.

2024–2026-yillarda kompaniya so‘m kreditlar bo‘yicha foiz to‘lovlarining bir qismini 5 mlrd so‘mgacha qoplaydi. Kompensatsiya Markazi bankning asosiy stavkasidan kamida 4% yuqori bo‘lishi, lekin uning 1,75 baravaridan oshmasligi kerak. Shuningdek, kompensatsiya jratilgan kreditlar bo‘yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha miqdorda 3 yildan ortiq bo‘lmagan muddatga taqdim etiladi.<sup>4</sup>

Quyidagi rasmida 2024- yilning yanvar- oktabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy holati



5

Yuqoridagi rasmida ko'rishimiz mumkin bo‘lgan holatlар quyidagilardan iborat: ko'rishimiz mumkinki chakana savdo aylanmasi 2.2%ga, qurilish hajmi 2.3% Bozor xizmatlari

<sup>4</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/13/business-support/>

<sup>5</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/58130-2024-yilning-yanvar-oktabr-oylarida-o-zbekiston-respublikasi-iqtisodiy-holati>

sohasida 0.3% o'sish kuzatilgan. Bu kor'satkichlar tashqi savdo aylanmasida esa ancha past natija qayd etgan, ya'ni import 18%, eksport 19.5% ga tushgan.

Mamlakatimiz hududlarida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o'zini-o'zi band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish juda muhim o'rinnegallaydi.

Asosiy natijalar. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajribalar shuni tasdiqlaydiki, tadbirkorlarni raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o'z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini yuzaga keltiradi. Lekin, kichik biznes sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo'lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to'sqinlik qilishi mumkin. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub'ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko'plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o'z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga urinishmoqdalar. Bu esa, yiriklashish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda.

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.09.2023 yildagi PQ-306-son**

Joriy yilning 18-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "uzluksiz xizmatlar zanjiri"ni yaratish maqsadida:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o'rnlarda — Biznesni rivojlantirish banki) 2023-yil 1-oktabrdan boshlab "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini (keyingi o'rnlarda — Dastur) amalga oshirish haqidagi taklifi ma'qullansin.

Biznesni rivojlantirish banki Dasturni samarali amalga oshirish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish bo'yicha asosiy tayanch bank etib belgilansin.

"Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturining tashkiliy-institutsional tuzilmasi va mutasaddi tashkilotlarning asosiy vazifalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Dasturni 2023 — 2026-yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirilsin.

2. Belgilansinki, quyidagilar “Kichik biznesga ko‘maklashish markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatlariga (keyingi o‘rinlarda — markazlar) onlayn ariza yuborish orqali Dasturda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi:

kamida bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta’lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta’minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari;

oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o‘z biznes loyihamalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Bunda, Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini shaffoflik tamoyillari asosida tanlab olish tartib-taomillari 2-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

markazlar tomonidan tanlab olingen tashabbuskorlar biznes ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida qisqa va o‘rtal muddatli amaliy o‘quv kurslarida o‘qitiladi;

amaliy o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat olgan tashabbuskorlar Dastur doirasidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanadi.

4. 2023-yil 1-oktabrdan boshlab Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va konsultativ qo‘llab-quvvatlash choralarini etib quyidagilar belgilansin:

a) moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so‘mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi;

qiymati 1,5 milliard so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan qarzga berish;

24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag‘lari miqdori 1 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta’milagan kichik tadbirkorlik subyektlarining yangi loyihamalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihamalariga bo‘shturgan davlat mulki obyektlari va yer maydonlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ko‘rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20 foizgacha, biroq 1 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan qiymatda ulushdor bo‘lib kirish;

innovatsion ishlammalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘larini ajratish;

b) konsultativ qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

litsenziya, ruxsatnomalar va sertifikatlar olish masalalari, bojxona va soliq ma’muriyatichiligi, eksport va import operatsiyalari, shartnomalarni rasmiylashtirish;

davlat xaridlarida ishtirok etish, shuningdek, yer uchastkalari va bino-inshootlarni sotib olish yoki ijaraga olish va loyihalashtirish;

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaldagi imtiyoz va preferensiyalar, mavjud boshqa yengilliklar va imkoniyatlar bo‘yicha ma’lumot va maslahatlar berish.

Dastur ishtirokchilarini moliyaviy va konsultativ qo‘llab-quvvatlash instrumentlari va ulardan foydalanish shartlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Markazlarga o‘zi tomonidan kichik biznes loyihalariga kiritilgan ulushni 7 yil davomida bozor qiymatida loyiha tashabbuskoriga yoki boshqa salohiyatli investorlarga realizatsiya qilish huquqi taqdim etilsin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Dasturni uzluksiz ravishda zarur moliyaviy resurslar bilan ta’minlab borishga mas’ul etib belgilansin. Bunda, Dasturni barqaror moliyaviy resurslar bilan ta’minalash uchun xalqaro moliya bozorlari hamda xalqaro moliya institutlari hisobidan zarur hajm va muddatlarda mablag‘lar jalb etiladi.<sup>6</sup>

Misol tariqasida “SHaxnoza perfume&cosmetics MCHJ” olindi. Bu korxona chet eldan ayollar va erkaklar uchun parfumeriya va kosmetika mahsulotlari olib kelib ularni ulgurji narxda sotishga iqtisoslashgan. Bu korxona 2021-yil mart oyidan beri o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda va kunlik pul aylanmasi hajmi o‘rtacha 10mln hisoblanadi. Bundan sof foyda 17%ni tashkil etadi. Bu korxona eksport va importni juda ham yaxshi yo’lga qo’yan hisoblanadi. Hozirgi kunda korxona 20dan ko’p odamlarni ish bilan ta’milagan.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan fakt va natijalardan kelib chiqadigan bo’lsak, hozirgi kunda davlatimiz o‘z-o‘zini band qilishga juda katta e’tibor qaratmoqda. Buning asosiy sababi xususiy biznes va tadbirkorlar sonini ortib borishi ular orasidagi sof raqobatga olib keladi. Buning natijasida monopoliyaga yo’l qo’yilmaydi, narxlar barqaror holatda saqlanadi va mahsulot yoki xizmat sifatiga juda katta e’tibor qaratiladi

## REFERENCES

1. <https://lex.uz/acts/-1856013>;

<sup>6</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6609110?ONDATE=16.03.2024%2000>

<https://daryo.uz/2023/11/13/ozbekistonda-20232026-yillarda-kichik-beznesni-qollabquvvatlash-uchun-17-mlrd-dollar-mablag-ajratiladi;>

2. <https://daryo.uz/2023/11/13/ozbekistonda-20232026-yillarda-kichik-beznesni-qollabquvvatlash-uchun-17-mlrd-dollar-mablag-ajratiladi;>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/13/business-support/>;
4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/58130-2024-yilning-yanvar-oktabr-oylarida-o-zbekiston-respublikasi-iqtisodiy-holati>;
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/13/business-support/>;
6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/58130-2024-yilning-yanvar-oktabr-oylarida-o-zbekiston-respublikasi-iqtisodiy-holati>;